XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-51-145-7-107-K/21 Samarqand shahar hokimligi

Shahar hokimligi moliya bo‘limi mudiri B.Mamadaliyevning Samarqand shahrining 2022-yilgi mahalliy byujetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining “Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2022-yil uchun Samarqand shahar byudjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari shahar Kengashi VI chaqiriq, LI sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Samarqand shahar byudjetiga Samarqand viloyati byudjetidan ajratilgan:

tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 79 902 561,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi. Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozining ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilganligi hamda shahar byudjetining aylanma kassa mablag‘i 3 573 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi qaroriga asosan 2022-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari shahar byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

aylanmadan soliq;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar viloyatning viloyat byudjeti hamda shahar mahalliy byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 12 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘ining 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imning 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlarning (bojxona yig‘imlaridan tashqari) 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlarning 10 foiz miqdorida shahar byudjetiga;

Mobil aloqa xizmati va sigaret uchun hamda alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz soliqlaridan tushumlar tegishli ravishda 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun shahar byudjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar byudjetidan 2022-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi
3 691 878,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun shahar byudjetidan 2022-yilda 18 459 389,0 ming so‘m mablag‘ yo‘naltirilsin.

7. Shahar hokimligi (Egamov):

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining
25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida moliyaviy hisobotlarni hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin;

byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va

samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatishi uchun shahar Kengashiga doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi” (Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Egamov)lar zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi **B.Oblakulov**

Халқ депутатлари Самарқанд
шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-145-7-107-K/21-сон қарорига
1-илова

Samarqand viloyati Samarqand shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**311 436 480,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	66 113 400,0
2	Foyda solig‘idan tushumlar	18 201 100,0
3	Aylanmadan soliqlar	50 980 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	13 401 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 586 000,0
6	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	1 000 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	32 030 000,0
8	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar	3 797 100,0
9	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	4 856 100,0
10	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3 213 800,0
11	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining	3 956 380,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	2 624 000,0
13	Ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar	6 855 600,0
14	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar	
15	Avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar	
16	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	33 996 000,0
17	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	19 368 000,0
18	Sigaret uchun aksiz solig‘i	36 458 000,0

Халқ депутатлари Самарқанд
шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-145-7-107-K/21-сон қарорига
2-илова

2022-yil uchun Samarqand shahar mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	**Ko‘rsatkichlar**	**2022-yil**
Samarqand shahar bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**391 339 041,0**
1.	Xalq ta’limi bo‘limi	17 818 969,0
2.	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	22 942 399,0
3.	Tibbiyot birlashmasi	151 491 487,0
4.	Madaniyat bo‘limi	17 797 245,0
5.	Turizim va sport bo‘limi	9 459 242,0
6.	Bandlikka ko‘maklashish markazi	787 809,0
7.	Hokimiyat	167 395 353,0
8.	Xalq qabulxonasi	216 891,0
9.	Xalq deputatlari shahar Kengashi	214 376,0
10.	Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi	928 307,0
11.	Moliya bo‘limi	921 380,0
12.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 365 583,0